



XORAZM URFIY MAQOMLARI

Ibodullayev Azizbek

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti 2-bosqich talabasi.*

Mahammadjonova Jasmina

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti 2-bosqich talabasi*

Ilmiy rahbar: Xumoyun Xaydarov

*Yunus Rajabiy nomidagi O'zbek milliy
musiqa san'ati instituti katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorazmda uzil-kesil shakllangan, azaldan urf-odat sifatida yangrab kelgan Xorazm urfiy maqomlari xususida so'z boradi. Urfiy maqom o'zi nima, u qanday paydo bo'lgan, xorazm olti yarim maqomidan nimasi bilan farq qiladi, bugungi kunda Urfiy maqomlarning targ'ibot ishlari haqidagi savollarga javob olishingiz mumkin. Misollar notalar va kuy bo'laklari hamda jadvallar yordamida ochib beriladi.

Kirish so'zlar: Urfiylik, maqom, xorazm olti yarim maqomi, Muhammad Rahimxon Feruz, Matpano ota Xudayberganov, "Xorazm musiqiy tarixchasi", "Xorazm maqomlarining zamonaviy yozuvlarini shakllantirish" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy seminari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются обычаи Хорезма, которые формировались непрерывно в Хорезме и звучат как традиции с древнейших времен. Что такое макам Урфи, как он появился, чем он отличается от шести с половиной макамов Хорезма, сегодня вы можете получить ответы на вопросы о пропаганде макамов Урфи. Примеры поясняются с использованием нот и музыкальных произведений, а также таблиц.



Ключевые слова: Урфизм, макам, шесть с половиной макамов Хорезма. Мухаммад Рахимхан Феруз, Матпано ота Худайберганов, «Музыкальная история Хорезма», Республиканский научно-практический семинар на тему «Формирование современных письменностей хорезмийских статусов».

Abstract: This article deals with the customs of Khorezm, which have been continuously formed in Khorezm and have been heard as traditions since time immemorial. What is the Urfi maqam, how did it appear, how does it differ from the six and a half maqams of Khorezm, today you can get answers to questions about the promotion of Urfi maqams. Examples are explained using sheet music and pieces of music, as well as tables.

Keywords: Urfism, status, six and a half statuses of Khorezm, Muhammad Rahimkhan Feruz, Matpano ota Khudayberganov, "Musical history of Khorezm", Republican scientific and practical seminar on the topic "Formation of modern records of Khorezm statuses".

“Biz kim Xorazm mamlakatining oliy xoqoni Muhammad Rahimxon Soniy quyidagi Farmoni Oliyga imzo chekdik.

Xorazm maqomlari xalqning daxlsiz mulki deb e’lon qilinsin. Ushbu farmoni oliyga shok keltirgan va maqomlarni kamsitgan yoyinki uni buzib ijro etgan kimsalar qattiq jazolansin!”

Muhammad Rahimxon Soniy

1292 Hijriy Jamodul-Avval. /1882y/

Ma’lumki islom dunyosining klassik musiqasi “maqamat” deb yuritiladi. O’rta Osiyo mintaqasining maqomoti bu yirik shajaraning asoslaridan birini tashkil etadi. Maqomot-Buxoro Shashmaqomi, Xorazm maqomlari, Farg’ona-Toshkent maqom yo’llaridir.



Maqomotning uchta asosiy tarixiy maktabni solishtirganda, avvalo, quyidagi manzara nazarga tashlanadi: Xorazm maqomlarida qadimiy ildizlarga xos xususiyatlar ko‘proq uchraydi, Buxoro Shashmaqomiga o‘xshab uncha shoxlab ketmagan, lekin salobatli va ulug‘vorligi undan kam emas; Buxoro turkumi jimjimadorligi, sho‘balarining ko‘pligi va har biri katta-kichik qismlarga qismlarga tarmoq otib ketganligi bilan ajralib ajralib turadi; Farg‘ona-Toshkent maqom yo‘llari nisbatan o‘zining servariantligi va ular asosida ko‘plab kuy-ashulalari paydo bo‘lib, el sozandalari ijodiga ulanib ketganligi bilan ajralib turadi. Qanday bo‘lmasin, har bir maqom uslubining qadri-qimmati o‘zida va ularning badiiy salohiyatini bir-biridan ustun qo‘yish yoki kamsitish o‘rinli emas. Aksincha, ular umumlashib, yagona maqomot shajarasini tashkil etadi.[1.49]

Lekin Xorazm maqomlarining paydo bo‘lishi uchun zamin yaratgan maqomlar borligi haqda xabaringiz bormi?

Xorazm maqomotida olti yarim maqom bilan bir-biriga yaqin bo‘lib kelgan maqom navlaridan biri bu-Urfiy maqomlardir.

Urfiy maqomlar bu-Xorazm vohasida urf-odat etilgan, Xorazm olti yarim maqomi uchun andoza sifatida qo‘llanilgan maqomlar turidir. Xorazm maqomotida dutor maqomlari, olti yarim maqom bilan birga shakllanib, yashab kelayotgan urf-odat tusiga kirgan Urfiy maqomlar ham alohida ajralib turadi. Urfiy maqomlar haqidagi ilk ma’lumotlarni Mulla Bekjon Rahmon o‘g‘li Muhammad Yusuf Devonzodaning “Xorazm musiqiy tarixchasi” asaridan olishimiz mumkin bo‘ladi.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon Soniy musiqadan xabardor shaxslardan bo‘lganligi bizga manbalardan ma’lum. Uning buyrug‘i va ko‘rsatmalari asosida xalq orasida urf-odat tusiga kirgan Urfiy maqomlardan andoza olinib, uning kuy va ohang tuzilmalari tartibga solinib, ko‘plab yangi kuy va ashulalarni o‘zlashtirib, yangi tuzilma yaratilgan. Bu tuzilma keyinchalik Xorazm olti yarim maqomi deya atala boshlangan. Komil Xorazmiy, Muhammad Rasul Mirzo, Xudoybergan



Muhrkan, Muhammad Yusuf Bayoniy, Matyoqub Xarrot kabi maqomdon ustozlar tomonidan bu olti yarim maqom tanbur chizig'iga olingan. Mulla Bekjon Rahmon o'g'li Muhammad Yusuf Devonzoda o'zining "Xorazm musiqiy tarixchasi" asarida: "Muhammad Rahimxon Soniy musiqiy ilmina chong darajada havosli bo'lib, musiqiy ishlari muning zamonasidan butun- butunina boshqa bir xol kasb etadur. Burundan xalq orasinda ozroq istanilgan musiqiy ishlar ortiqmoch bir sur'atda tarqaladur va milliy nag'malarni vujudga chiqmaqina imkoniyat yaraladur. Xususiy mutaxassis musiqashunoslar durab (yaralib), shashmaqom nag'malarining mushkilot, tasnif qismlari ayricha ahamiyat kasb etib, mushkulot bila tasnif qismlarina taalluqli shashmaqom nag'malari burungi holidan hiylichu o'zgarib, necha qo'shimchalar qo'shulib, yomaladur",-deb yozadi. Bu bilan u nima demoqchi? Xiva xoni Feruz sharofati bilan azaldan xalq orasida ishlatilgan musiqiy ishlari (maqom ko'zda tutilmoqda) yanada keng suratda tarqalib, yangi milliy ohanglar yaratilganidan dalolat beradi. Shashmaqomning mushkulot va tasnif qismlaridan andoza olingan xolda, xorazmcha nag'malar qo'shilib, yangi ohang paydo qilishgan. Xorazm Urfiy maqomlari o'sha davrda notaga olinmagan, biroq, shunday bo'lsa ham el orasida ustoz-shogird an'analari orqali bizgacha yetib kelgan. Urfiy musiqa taraqqiyoti o'zining o'tmish yutuqlariga sadoqat, yangi ufqlarga muntazam intilish, harakatlanib va o'zgarib turuvchi ichki qonuniyatlariga asoslanadi.

Polvonboy, Yoqub dorichi, O'smonjon, Abdujabbor, Abdurahmonbek, Mullo Yoqub, Xudoybergan maxdum, Bobojon bola Mullo Muhammadsharif Xudaybergan muhrkan kabi nomlari keltirilgan ustozlarning har biri Xorazm Urfiy maqomlarini yaxshi bilgan, Matpano otagacha ustoz-shogird urf-odatlarini saqlab qolgan buyuk san'atkor ustozlar hisoblanadilar.

O'tgan asrning 30-yillaridan e'tiboran milliy musiqiy qadriyatlarimizdan bo'lgan maqomlarimizning yo'llari to'silib, ular bilan bog'liq tushuncha va atamalar ham keskin ravishda iste'moldan chiqarilgan va bu san'at davr talabidan tashqarida



qolib, ijrochilik an'analarida uzilishlar sodir bo'la boshlagan edi. Ushbu davrlarda musiqiy merosimiz qadimiy namunalarini maqomdon ustozlar xotiralarida og'zaki (ya'ni xatga yozilmagan) tarzda saqlab kelganlar. Ana shunday bilimdonlardan biri Matpano ota Xudoyberganov hisoblanadi. Uzoq yillar viloyat teatrida rahbarlik lavozimlarida ishlagan Yunus Yusupov tashabbusi bilan Matpano ota rahbarligida 1943-yilda Urganchda viloyat teatri qoshida o'ziga xos konsert guruhi ("estrada teatri") tashkil etilib, unda xalq orasida saqlanib qolingan Urfiy maqomlarni yosh san'atkorlarga o'rgatish hamda ommaviylashtirishga qaratilgan ijodiy uyushma yuzaga kelgan edi. Uyushmada atoqli san'atkorlar Razzoq ota Omonov, Hojixon Boltayev bilan bir qatorda Nurmuhammad Boltayev, Nazira Yusupova, Ollanazar Hasanov, Matniyoz Yusupov, Sayidnazar Otajanov kabi yoshlar ham ishtirok etganlar. Komiljon Otaniyozov ham ijodiy uyushmaning faol ishtirokchilaridan biri bo'lgan, fidokor, uyushmaga moddiy va ma'naviy homiylik qilgan. Matpano ota Xudayberganovdan olingan Urfiy maqomlarni keyingi avlodlarga o'rgatish maqsadida 1964 yilda Hojixon Boltayev rahbarligida Urganch madaniyat uyi qoshida maqom ansambli tuzilgan. Bu ansambl badiiy havaskorlik to'garagi darajasida faoliyat ko'rsatgan. Maqomlarni o'z ijro amaliyotida qo'llab yurgan, katta san'atga endi kirib kelayotgan Ro'zmat Jumaniyozov (ansambl a'zosi) ustozini Hojixon Boltayevdan Urfiy maqomlarni o'zlashtirib oladi. Ansambl jamoasi tomonidan Xorazm Urfiy maqomlari ijrolari magnit tasmlariga yozib olingan. Tarixiy hujjat va manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, XIX asrning 20-yillarida Shashmaqom va uning ichki mantiqi va tarkibiy tuzilishi asosida Niyozjon Xo'ja tomonidan Xorazm maqomotining yangi navi Olti yarim maqom tizimi ishlab chiqilgan. Muhammad Rahimxon Feruz davriga kelib Olti yarim maqom tizimi tanbur chizg'ilari asosida qog'ozga tushiriladi. Olti yarim maqomning usul, parda va lad asoslari Urfiy maqomlarining umumiy tuzilishi bilan bir qancha tarafdin farq qiladi. Urfiy maqom tizimlaridagi kuy xonalarining tarkib va tartibi Olti yarim maqom tizimlasida to'ldirilib, bozgo'y va avjlar aniq berilgan. Usullar aniq



ko'rsatilgan. Har bir qism parda va usul nomi bilan berilgan. Urfiy maqomlarda ba'zi kuy tizimlarining nomlari so'z matnidagi radiflar nomi bilan aytish odatga kirgan. Olti yarim maqom tarkibidagi har bir maqomda to'rttadan lad tizimi bor. Urfiy maqomlarning aytim qismi tarkibiga kirgan beshta maqomda 13 ta asosiy lad tizimlari mavjud. Misol uchun Urfiy Rost maqomi lad tizimlari: "Rost", "Ushshoq", "Sabo", "Panjgoh".

Sabolad tizilmasi




Panjgohlad tizilmasi




Xorazm Urfiy maqomidagi Buzruk maqomida "Buzruk", "Nasrullovi" ladi mavjud. Tanbur chizg'ilarida yozilgan Olti yarim maqomdagi Buzruk maqomining lad tizilmasi "Ajam", "Uzzol" lad tizimlari bilan kengaytirilgan.

Buzruk lad tizilmasi



Nasrullovi lad tizilmasi




Xorazm Urfiy maqomlarida "Navo" va "Oraz" ladi mavjud. Tanbur chizg'ilarida yozilgan Olti yarim maqomidagi "Navo" maqomi tizilmasida "Navo", "Bayot", "Oraz", "Dugoh Husayni maqomi Navo" ladi kiritilgan.

Navo lad tizilmasi




Oraz lad tizilmasi



Xorazm urfiy maqomlarida Dugoh maqomi tarkibiga "Dugoh" va "Chorgoh" ladi kiritilgan. Tanbur chizg'ilarida yozilgan "Dugoh" maqomi tarkibida "Dugoh", "Chorgoh", "Oraz", "Dugoh Husayni maqomi Dugoh" ladi mavjud.

Dugoh lad tizilmasi






Chorgoh lad tizilmasi




Urfiy Segoh maqomi tarkibida Segoh, Hijoz, Xoro, Ajam lad tizilmalari mavjud. Tanbur chizg'ilarida yozilgan Olti yarim maqom va Urfiy maqom tarkibida to'rtala lad tizilmalari saqlangan.


Segoh lad tizilmasi



Hijoz lad tizilmasi



Xoro lad tizilmasi



Ajam lad tizilmasi



2

O'zbek milliy maqom san'ati markazi, Xorazm viloyati madaniyat boshqarmasi, Xorazm namunali maqom ansambli, Urganch davlat universiteti san'atshunoslik fakulteti "Musika ta'limi" kafedrası professor-o'qituvchilari va tadqiqotchilari ishtirokida 2021-yil fevral va may oylarida Urganch shahrida "Xorazm maqomlarining zamonaviy yozuvlarini shakllantirish" mavzusida Respublika ilmiy-amaliy seminari o'tkazildi. Seminarda Xorazm urfiy maqomlarini azaliy an'analari, tarkibiy qismlari va ijro amaliyotida mavjud bo'lgan namunalari taxlil qilindi. Xorazm Urfiy maqomlarini xozirgi davrga xos tartibga keltirib maqomlarning tarkibiy tuzilmalari negizida qayta to'ldirilgan qismlari Xorazm namunali maqom ansambli jamosi tomonidan ijro qilindi. Seminar qatnashchilari o'z

² R. Boltayev. B. Rahimov. Xorazm Urfiy maqomlari. Toshkent. "Adast poligraf". 2021.23-bet



fikrlarida, oldin yo'l qo'yilgan ayrim kamchiliklarni to'ldirish va ularni ma'lum darajada notaga olib ijro yozuvlarini tayyorlash belgilab olindi. Xorazm Urfiy maqomlarining amaliyotda mavjud bo'lgan namunalari asosida to'liq tartibga keltirish takliflari ko'rib chiqildi. Urfiy yo'ldagi Rost va Buzruk maqomlari tarkibida mavjud bo'lgan 8 ta asl namunalari o'z holida saqlanib qolindi. Navo maqomining hozirgacha ijro etilib kelingan Nasri Navo va Faryodi Navolar ketma-ketlik mezoniga binoan o'rinlari almashtirildi.

Xorazm Urfiy maqomlarining azaliy an'analarini qoyidalariga mos bo'lgan yangi namunalari parda tizimiga mos xolda maqomlar tarkibiga kiritildi. Keltirilgan jadval asosida Xorazm Urfiy maqomlari quyidagicha tasdiqlandi.

XORAZM URFIY MAQOMLARI MANSUR QISMI

Rost	Buzruk	Navo	Dugoh	Segoh
1. Maqomi Rost	1. Tani maqomi Buzruk	1. Saqili Navo	1. Peshravi Dugoh	1. Xafifi Segoh
2. Tarje' Rost	2. Saqili Sulton	Muxammasi Bayot		Garduni Segoh
Muxammasi Ushshoq				

XORAZM URFIY MAQOMLARI MANZUM QISMI

Rost	Buzruk	Navo	Dugoh	Segoh
1. Tani maqomi Rost	1. Tani maqomi Buzruk	1. Tani maqomi Navo	1. Tani maqomi Dugoh	1. Tani maqomi Segoh
2. Taronai Rost	2. Sayri gulshan taronasi	Taronai Navo	Taronai Dugoh	Taronai Segoh
3. Suvoriy Rost	3. Tarona II	3. Suvoriy Navo	3. Suvoriy Dugoh	3. Suvoriy Segoh
4. Naqshiy Rost	4. Tarona III	4. Naqshiy Navo	4. Talqini Chorgoh	4. Muqaddimai Segoh
5. Talqini Rost	5. Suboriy Buzruk	5. Talqini Navo	5. Chorgoh	5. Talqini Segoh
6. Faryodi Nasri Ushshoq	6. Talqini Buzruk	6. Faryodi Nasri Navo	6. Naqshi Dugoh	6. Nasri Hijoz Muqaddimasi
7. Nasri Sabo	7. Nasrullohi	7. Orazi Navo	7. Talqini Dugoh	7. Navro'zo Xoro
8. Ufori Rost	8. Ufori Buzruk	8. Ufori Navo	8. Bayoti Dugoh	8. Naqshi Segoh
			9. Ufori Dugoh	9. Navro'zi Ajam
				9. Ufori Segoh



Tani maqomi Dugoh, Tarona, Suvoriy Dugoh, Naqshi Dugoh undan keyin parda tizimi mosligi uchun Talqini Dugoh, Chorgoh, Bayoti Dugoh va Ufori Dugoh ketma- ketligida ijro etish maqsadga muvofiq deb topildi. Urfiy yo'ldagi Segoh maqomidagi Segoh Sabosi nomli qisminiasl o'zining qadimiy nomi Nasri Hijoz muqaddimasi deb nomlandi. Maqom markazi jamoasi Urtiy maqomlarni o'rganishda bugungi kunda xalq nazariga tushgan Azamat Otajanovlar va Ochilbek Matchonov singari yetuk hofizlar bilan katta ijodiy izlanishlar olib bordilar. Namunali maqom jamoasi tomonidan Urfiy maqomlarning cholg'u qismlari, Urfiy dutor maqomlarning cholg'u va aytim qismlari, Rok turkimi, Suvora va Feruz turkumlari, Xorazmlik ustoz san'atkorlar ijodiga mansub 200 tadan ortiq ashulalarni audio va video yozuvlari tayorlandi. Urfiy yo'lda Segoh maqomining ufori qismi saqlanmagan. Ilmiy-amaliy seminari ishtiroqchilari xonandalar Azamat Otajanov, Samandar Xudayberganovlar yaratgan ufori Segohni bir ovozdan ma'qullanib Segoh tarkibiga kiritish taklifi qo'llab-quvvatlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. Rahimov, R. Boltayev. Xorazm Urfiy maqomlari. Toshkent. 2021.
2. O. Matyoqubov. Maqomot. Toshkent. 2004.
3. O. Matyoqubov. Xorazm dutor maqomlari va olti yarim maqomi. Toshkent. 2018.
4. G'. G'. Eshchanovlar namunaviy maqom ansambli audio yozuvlari Rost, Buzruk, Navo, Dugoh, Segoh.
5. Mulla Bekchon Rahmon o'g'li Muhammad Yusuf Devonzoda. Xorazm musiqiy tarixchasi. Toshkent. 1998.

³ R. Boltayev. B. Rahimov. Xorazm Urfiy maqomlari. Toshkent. "Adast poligraf". 2021. 28-bet